

**KOLLEKTIV TRAVMANING DAVLAT BOSHQARUV TIZIMIGA TA'SIRI.****Ma'rufov Adhambek O'ktam o'g'li***Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti 2- kurs Siyosatshunoslik  
yo'nalishi talabasi*

Bugungi kunda axborot huruji yordamida inson ongini shunchaki chalkashtirish va aldash oson bo'lib qoldi. Bundan tashqari globallashuv jarayonini tezlashtirib yuborgan texnologiyalar rivoji "propaganda"ni ortishiga olib keldi. Lekin etnik jihatdan kollektiv travmasi bor bo'lgan xalqlarni hatto to'g'ri ma'lumot berib ham travmadan ozod qilish mushkul va buning uchun bir necha avlodlar almashinuvi bo'lishi kerak deb hisoblanadi.

**Kollektiv travma o'zi nima?**

Kollektiv travma atamasi fanda "Butun jamiyatga ta'sir qiladigan travmatik hodisaga psixologik reaksiyalar"ni ifodalash uchun qo'llanilgan. Kollektiv travma nafaqat tarixiy fakt yoki voqeani, balki ma'lum guruh odamlari bilan sodir bo'lgan dahshatli voqea haqidagi umumiy xotirani ham ifodalaydi. Keling tarixiy faktlarga to'xtalib o'taman; Misol uchun tarixda ocharchilik bilan qiynalgan xalqlar keyinchalik hech qanday taomni isrof qilmasligini ko'rishimiz mumkin. Yoki sobiq sovet davlati boshqaruvida yuz bergan "qatag'on" siyosati, tizimdagi plyuralizmni o'ldirish maqsadida, erkin fikr bildira oladigan aholi qatlamiga hujum uyushtirilishi o'sha xalqlar orasida siyosatdan qo'rquv travmasini keltirib chiqardi. Buning asorati hozirda ham ba'zi mamlakatlar etnogenezida saqlanib qolgan.

Kollektiv travmadagi psixologik kechinmalar hamda tarixda ko'rilgan jabr-zulmlardan aholi ongli ravishda jamiyat orasida o'ziga-o'zi senzura qobig'ini yaratadi. Tashvishlanarlisi shundaki, kollektiv travmalar asosan oilada shakllanadi. Yoshi ulug' oila a'zolarining deyarli barcha pand-nasihatlari bevosita kollektiv travmadan olib gapiriladi, misollar bilan keltirib beriladi. E'tiborli jihati shundan iboratki jamoaviy normalar ham kollektiv travmani keltirib chiqarishi mumkin, har-xil jamiyat orasida ommabop bo'lgan qarashlar, an'analar va urf-odatlarining rivojlanishi bu bevosita qo'rquv hissiyoti bilan bog'liq hisoblanadi. Psixologik jihatdan o'ylab qarajak inson irim-sirimlarni qo'rqqanidan qiladi va bu oilada yoshligidan mafkura sifatida singdirilib kelinadi.

Davlat boshqaruv tizimida esa kollektiv travmaadan siyosatchilar o'ta mahorat bilan foydalanadi. Aholiga tarixda muvoffaqiyat qozongan yetakchilar chiqishlaridan iqtibos keltiradi, xalqning qiyinchiligiga sababchi bo'lgan yetakchilarning davrini qoralab, uning davriga "tosh"lar otadi. Vaholangki ular shunchaki hokimiyatga intilish yo'lida bunday texnologiyalardan foydalanayotgan bo'lishadi.

Misol uchun 2016-yilgi A.Q.Sh da bo'lib o'tgan prezidentlik saylov oldi debatlarida Hillary Clinton Rossiya Federatsiyasining gegemon davlatlar qatoridan chiqarish uchun hatto qurolli zarbalarga ham tayyorligini ochiqchasiga aytib yuborgani uni saylovda g'alaba qozonishiga yo'l qo'ymadi, aholining ko'p qatlamini ishonchsizlantirdi. (Clintonning gaplarini Qirim anneksiyasiga qarshi harakat deb ham baholash mumkin). Chunki bundan avval ham ya'ni sovuq urush vaqtida qurollanish poygasi A.Q.Sh va S.S.S.R mamlakatlari o'rtasida qurolli to'qnashuvlar bo'lishiga yaqinlashtirib, aholi ichida qo'rquv hissini ko'paytirib kollektiv travmaga aylanadi. Bu esa qurollanish poygasiga nisbatan o'ziga hos fobiyani shakllantirib qo'ygan edi.

Bundan tashqari davlatlarning siyosiy rejimidagi tranzit vaqtida hamda undan keyin aholi tomonidan avvalgi tuzmda orttirilgan kollektiv travma saqlanib qolishi tizimdagi tranzitni sekinlashtiradi va tranzitdan keyingi siyosiy islohotlarning samaradorligi pasayishiga ham olib kelishi mumkin.

Ilmiy jihatdan kollektiv travmaning davlat boshqaruv tizimiga ta'sirini ushbu kategoriyalar asosida o'rganish va tahlil qilish kerak:

1) Tarixiylik;

tarixda bo'lib o'tgan, aholining kelajagiga bevosita yaxshi yoki yomon ta'sir ko'rsata olgan voqealar. Qirg'inlar, genotsidlar va bosqinlar bunga misol bo'la oladi.

2) Ishonchsizlik;

mavjud siyosiy davlat boshqaruvi tizimga bo'lgan ishonchsizlik, tarixiylik kategoriyasi bilan aytganda avvalgi tuzumdagi jabr zulmlardan keyin yangi tuzimga ishonmasilk.

3) Bilimsizlanish,

bunda aholi orsida korrupsiya, buyrokratiya va lobbizimning ommalashishi va bunga bevosita aholining katta qatlami ishonishi, bilim olishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi.

Tasavvur qilish qiyin ammo ushbu jarayonlar davlat boshqaruv tizimiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Yuqorida aytib o'tganimdek bunday travmalardan qutilish uchun bir necha avlodlar almashinuvi kerak.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim kerakki albatta qaytish to'liqini bo'lishi mumkin, ha bu aholi etnogeneida saqlanib qolgan kollektiv travmalar yaxshilikka ham hizmat qilishi mumkin. Ilmingizni charxlang.